



NAVOIY VILOYATI NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 4-mart

48-5-73-Q/25

Navbahor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 fevraldagi “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-62-sonli hamda viloyat hokimining 2025-yil 21-fevraldagi 55-5- 0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash haqida

Yoshlarning tadbirkorlik g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ishbilarmonlik ko‘nikmalarini rivojlantirish, yosh tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiyot tarmoqlari va sohalaridagi, shu jumladan, startap va innovatsion loyihalarini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashish, kasb-hunar, raqamli texnologiyalar hamda xorijiy tillarni chuqur egallashi uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, shuningdek, yoshlar bandligini ta’minlashga qaratilgan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 14 fevraldagi “Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish va bandligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-62-sonli hamda viloyat hokimining 2025-yil 21-fevraldagi 55-5- 0-Q/25-sonli qarorlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan quyidagilar:

a) Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Markaziy bank, Yoshlar ishlari agentligi hamda AT “Aloqabank”ning 2025-2027-yillarda “Yoshlar biznesi” dasturini (keyingi o‘rinlarda - Dastur) amalga oshirish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullanganligi;

b) “Biznesga birinchi qadam” loyihasiga muvofiq o‘n sakkiz yoshga to‘lgan va o‘ttiz yoshdan oshmagan ijtimoiy soliq to‘lagan o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga onlayn shaklda asosiy qarzdand 2 yilgacha va foiz to‘lovlaridan 3 oygacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga sug‘urta polisi ta’minoti yoki uchinchi shaxs

kafilligi asosida 100 mln so‘mgacha mablag‘lar kredit mahsulotlari bo‘yicha imtiyozli mikroqarz sifatida ajratilishi;

v) “Yoshlar uchun ish o‘rinlari” loyihasi asosida yakka tartibdagi tadbirkorlik subyekti sifatida faoliyat yurituvchi yosh fuqarolarga, shuningdek, ta‘sischilari yosh fuqarolar bo‘lgan yuridik shaxs tashkil etgan holda faoliyat yurituvchi kichik tadbirkorlik subyektlarining yoshlarga kamida 20 ta ish o‘rni yaratishni nazarda tutuvchi loyihalariga 2 yilgacha imtiyozli davr bilan 7 yilgacha muddatga 5 mlrd so‘mgacha mablag‘lar kredit mahsulotlari bo‘yicha ajratilishi inobatga olinsin.

3.Tuman hokimligi, “Agrobank” tuman filiali (Axxorov),Yoshlar ishlari agentligi (Abdusalimov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

2025-yil 1 apreldan boshlab har oyda “investor kun”larini tashkil etish;

2025- yil yakuniga qadar “Yoshlar biznes-inkubatori” markazini tashkil qilib, tadbirkorlik faoliyatini yangidan boshlagan yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hamda muvaffaqiyatli tadbirkor darajasigacha rivojlanishlari uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish, jumladan ularga tayyor ofislarni ijaraga berish, buxgalteriya, marketing, eksport bozoriga chiqish bilan bog‘liq kompleks xizmatini ko‘rsatilishini ta‘minlasin.

4.Mazkur qaror ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi



A.O‘roqov